

VII. ISTE'MOL BOZORI CHAKANA SAVDO

Tovar aylanmasi

2026- yilning yanvar-martida chakana tovar aylanmasi 6652,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,9 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2025- yil yanvar-martiga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	6 652,8	100,9	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	5674,0	100,6	85,3
nodavlat mulki			
undan fuqarolarning xususiy mulki	978,8	105,3	14,7












Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2026- yilning yanvar-mart oylarida 2019,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,2 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-mart oylarida 3654,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 foizga o'sdi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	6 652,8	100,9	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	2 019,8	99,2	30,4
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	3 654,2	101,4	54,9
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	978,8	105,3	14,7




Uyushmagan savdo tovar aylanmasi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>238,3 mlrd. so'm</p>  <p>54,1 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>70,0 mlrd. so'm</p>  <p>15,9 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>18,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>33,0 mlrd. so'm</p>  <p>7,5 %</p>	<p>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>13,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>12,3 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>18,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,3</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>15,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,5 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>5,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>5,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,9 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>8,5 mlrd. so'm</p> <p>1,9 %</p>




2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 440,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (238,3 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: chorva (parranda) bozorlari

2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 538,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 374,2 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 140,0 mlrd. so'mni, otlar 21,5 mlrd. so'mni, parrandalar 2.1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	1 yoshgacha bo'lgan vosh mollar
238,0 <i>mlrd. so'm</i>	104,4 <i>mlrd. so'm</i>	31,8 <i>mlrd. so'm</i>
 44,2 %	 19,4 %	 5,9 %

Qo'ylar	Otlar	Echkilar
82,4 <i>mlrd. so'm</i>	21,5 <i>mlrd. so'm</i>	57,6 <i>mlrd. so'm</i>
 15,3 %	 4,0 %	 10,7 %


Kurka, o'rdak, g'oz	Tovuqlar	Quyionlar
0,5 <i>mlrd. so'm</i>	1,6 <i>mlrd. so'm</i>	0,5 <i>mlrd. so'm</i>
 0,1 %	 0,3 %	 0,1 %



Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 145,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 72,2 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 292,5 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 177,4 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 2 852,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 171,6 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining savdo tovar aylanmasi 4 406,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,2 foiz bo'lib, 1 786,3 ming so'mni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6652,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 408,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 129,1 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 1611,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 93,7 %), jismoniy shaxslarning savdo tovar aylanmasi 3 654,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 101,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 978,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,3 %) tashkil etdi.

**Yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar
aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo'lgan Qarshi shahri (viloyat bo'yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi (25,8 %), Chiroqchi (8,7%), Koson (8,0 %), Shahrisabz shahri (7,8 %), Qamashi (7,1 %) va Kitob tumanlarida (5,2 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 408,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,1 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,1 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 6244,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 99,8 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,9 foizga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,
(jamiga nisbatan foiz hisobida)



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	408,3	129,1	6 244,5	99,8
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	156,6	121,5	1 498,0	98,6
Shahrisabz sh.	22,1	141,3	476,3	100,3
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	18,1	110,2	256,9	99,8
Dehqonobod	3,1	132,8	197,4	99,6
Qamashi	34,4	2,9 m.	419,7	95,3
Qarshi	4,0	100,0	267,9	100,0
Koson	21,6	101,2	494,0	101,2
Kitob	7,6	124,8	324,0	100,8
Mirishkor	2,3	126,4	219,0	99,7
Muborak	15,9	129,9	164,9	99,5
Nishon	2,4	107,0	249,1	99,9
Kasbi	2,8	101,8	236,5	100,0
Ko‘kdala	13,0	149,3	203,5	98,2
Chiroqchi	14,5	134,2	543,2	100,4
Shahrisabz	34,4	91,1	204,6	103,7
Yakkabog‘	8,6	184,9	308,9	99,1

2026- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘shish sur‘ati bo‘yicha Shahrisabz tumani (103,7 %), Koson tumani (101,2 %), Kitob tumani (100,8 %), Chiroqchi tumani (100,4%) va Shahrisabz shahri (100,3 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 6,1 foizni tashkil etib, yirik korxonalarning eng katta ulushi Shahrisabz tumanida (14,4 %), Qarshi shahri (9,1 %), Muborak tumani (8,8 %) va Qamashi tumani (7,6 %) kuzatildi.